YUKSAK HUQUQIY MADANIYAT — ADOLATLI JAMIYAT KAFOLATI

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ijtimoiy gumanitar pedagogika oliy maktabi fakulteti

322-26-guruh talabasi Malikov Abdumannon

UO‘K (УДК): 340.114.5:342.7(575.1)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning nazariy-huquqiy asoslari hamda ularning demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi strategik ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, huquqiy madaniyatni shakllantirishda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunchilik hujjatlari va davlat siyosatining o‘rni yoritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining aholining huquqiy savodxonligini oshirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va fuqarolarning huquqiy mas’uliyatini kuchaytirishga oid konseptual qarashlari tahlil qilinadi. Milliy huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy yondashuvlari asosida yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jamiyatda qonunga hurmat muhitini qaror toptirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, qonun ustuvorligi, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy adolat, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, inson huquqlari, huquqiy tarbiya, huquqiy mas’uliyat.

Аннотация: *В данной статье научно анализируются теоретико-правовые основы повышения правосознания и правовой культуры в обществе, а также их значение для развития демократического государства и гражданского общества. Рассматривается роль Конституции Республики Узбекистан в новой редакции, законодательных актов и государственной политики в формировании правовой культуры. Анализируются концептуальные взгляды Президента Республики Узбекистан на повышение правовой грамотности населения, обеспечение верховенства закона и формирование правовой ответственности граждан. На основе научных подходов отечественных учёных-юристов разработаны предложения и рекомендации по повышению правовых знаний молодёжи, предупреждению правонарушений и формированию уважительного отношения к закону в обществе.*

Ключевые слова: правосознание, правовая культура, верховенство закона, правовая грамотность, справедливость, правовое государство, гражданское общество, права человека, правовое воспитание, правовая ответственность.

Abstract: *This article scientifically analyzes the theoretical and legal foundations of improving legal awareness and legal culture in society, as well as their importance in the development of a democratic state and civil society. It examines the role of the revised Constitution of the Republic of Uzbekistan, legislative acts, and state policy in shaping legal culture. The article also discusses the conceptual views of the President of the Republic of Uzbekistan on improving legal literacy, ensuring the rule of law, and strengthening citizens' legal responsibility. Based on the scientific approaches of legal scholars, actionable recommendations are developed to enhance young people's legal knowledge, prevent legal violations, and promote respect for the law in society.*

Keywords: legal awareness, legal culture, rule of law, legal literacy, justice, rule-of-law state, civil society, human rights, legal education, legal responsibility.

KIRISH

Har qanday demokratik davlatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, uning milliy huquq tizimi qay darajada takomillashgani hamda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Zero, mukammal qonunlarning qabul qilinishi o‘z-o‘zidan adolatli va farovon jamiyatni shakllantira olmaydi. Qonunlar ijtimoiy hayotda chinakam regulyatorga aylanishi uchun har bir shaxs o‘z konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini teran anglashi, huquq normalariga ichki ishonch va hurmat bilan munosabatda bo‘lishi hamda kundalik faoliyatida qonun talablariga og‘ishmay amal qilishi taqozo etiladi [3, 184-b.].

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi hamda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning xalqaro standartlari keng joriy etilishi fuqarolardan nafaqat nazariy huquqiy ma’lumotga ega bo‘lishni, balki ushbu bilimlarni amaliy vaziyatlarda samarali qo‘llay olish kompetensiyasini ham talab etmoqda [5, 42-b.].

Huquqiy madaniyat — bu shunchaki amaldagi qonunchilik normalaridan xabardorlik emas, balki qonunlarga ongli ravishda itoat etish, o‘zga shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish hamda davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik mas’uliyatini chuqur anglash darajasidir [4, 210-b.]. Shu boisdan ham aholining barcha qatlamlarida yuksak huquqiy madaniyatni qaror toptirish Yangi O‘zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat barpo etishning bosh kafolati hisoblanadi [2].

ASOSIY QISM

Davlat va huquq nazariyasida «huquqiy ong» hamda «huquqiy madaniyat» kategoriyalari o‘zaro uzviy dialektik aloqadorlikda tadqiq etiladi. Huquqiy ong — ijtimoiy ongning mustaqil shakllaridan biri bo‘lib, u alohida shaxs, ijtimoiy guruh yoki butun jamiyatning amaldagi huquq tizimi, qonunlar, yuridik hodisalar, subyektiv huquq va yuridik majburiyatlar to‘g‘risidagi bilimlari, g‘oyalari,

psixologik kechinmalari va baholovchi munosabatlari majmuidir [3, 186-b.]. Huquqiy ong insonning yuridik voqelikka qanday munosabatda bo‘lishini belgilab beradi: fuqaroning o‘z haq-huquqlarini himoya qila olishi, huquqbuzarlik holatlariga murosasiz bo‘lishi va adolatsizlikka nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishi bevosita huquqiy ong darajasining ko‘rsatkichidir.

Huquqiy madaniyat esa huquqiy ongga nisbatan kengroq va mazmunan boyroq tushuncha sanaladi. U nafaqat huquqiy mafkura va huquqiy psixologiyani, balki jamiyatda erishilgan yuridik fan va texnika darajasini, qonunlarga hurmat ruhini, subyektlarning amaliy huquqiy faolligini, qonuniy xulq-atvorini hamda yuridik mas’uliyat mexanizmlarini o‘z ichiga oladi [5, 58-b.].

Milliy huquqshunoslik maktabi namoyandalari mazkur kategoriyalarning funksional tabiatini chuqur tadqiq etganlar. Xususan, taniqli huquqshunos olim Z.M. Islomov davlat va huquq nazariyasiga oid fundamental tadqiqotlarida huquqiy ongning jamiyat huquqiy hayotini tartibga solishdagi regulyativ va aksiologik (qadriyatli) funksiyalariga alohida e’tibor qaratadi [3, 190-b.]. Olimning ilmiy yondashuvlariga tayanib, huquqiy ongni ijtimoiy munosabatlarning huquqiy shaklga kirishi va qonuniylik rejimining mustahkamlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi hal qiluvchi ijtimoiy-psixologik omil sifatida baholash mumkin.

Professor X.T. Odilqoriyevning ilmiy asarlarida esa huquqiy madaniyat fenomeni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro uyg‘un rivojlanishi kontekstida tahlil qilingan [4, 212-b.]. Ushbu konseptual yondashuv jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalishi faqatgina davlat hokimiyati organlarining ma’muriy sa’y-harakatlariga emas, balki eng avvalo, fuqarolarning o‘zini o‘zi tashkil etishiga, ijtimoiy-huquqiy faolligiga va huquqiy nigilizmga (qonunlarni mensimaslikka) qarshi immunitetning shakllanganligiga bog‘liq ekanini asoslaydi. Akademik A.X. Saidov esa inson huquqlari madaniyatini umumiy huquqiy madaniyatning o‘zagi sifatida ta’riflab, shaxs qadr-qimmatini

e’zozlash demokratik huquqiy tizimning bosh mezoni ekanini ta’kidlaydi [5, 74-b.].

1-jadval. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat kategoriyalarining qiyosiy-nazariy tavsifi [3; 4; 5]

Taqqoslash mezonlari	Huquqiy ong	Huquqiy madaniyat
Tushunchaning mohiyati	Shaxs va jamiyatning huquq, qonunlar hamda yuridik hodisalar haqidagi bilimlari, tasavvurlari va his-tuyg‘ulari yig‘indisi.	Huquqiy bilim va qarashlarning insonning amaliy xatti-harakatlarida, qonuniy xulq-atvorida va huquqiy faolligida namoyon bo‘lish darajasi.
Tarkibiy tuzilishi	Ikki asosiy elementdan iborat: 1) Huquqiy mafkura (nazariy bilimlar va g‘oyalar); 2) Huquqiy psixologiya (his-tuyg‘ular va odatlar).	Murakkab tizim: huquqiy ong, qonunchilik sifati, huquqni qo‘llash amaliyoti, qonunga hurmat odati va huquqiy mas’uliyat.
Namoyon bo‘lish shakli	Ichki (subyektiv-ruhiy va intellektual) sohada: huquqiy normalarni bilish, anglash va ularga baho berishda ko‘rinadi.	Tashqi (obyektiv-amaliy va institutsional) sohada: qonunga ongli rioya etish, huquqlardan foydalanish va majburiyatlarni bajarishda ko‘rinadi.

Yangi O‘zbekistonda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini tizimli rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari kafolatlari, qonun ustuvorligi hamda davlat va shaxsning o‘zaro mas’uliyati tamoyillari oliy yuridik kuchga ega normalar sifatida mustahkamlandi [1].

Asosiy Qonunning muqaddimasidayoq mamlakatimizda huquqiy davlat va adolatli jamiyat barpo etish maqsadi e’lon qilinib, 1-moddada davlatchilikning fundamental tabiati quyidagicha ta’riflangan: *«O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat»* [1, 1-m.].

Huquqiy davlatning eng muhim belgisi Konstitutsiya va qonun ustuvorligi tamoyili Bosh Qomusimizning 15-moddasida qat’iy belgilab qo‘yilgan:

«O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi» [1, 15-m.].

Shuningdek, Konstitutsiyaning 19 va 20-moddalarida inson huquqlarining tabiiyligi, daxlsizligi hamda fuqaro va davlat munosabatlaridagi huquqiy muvozanat o‘z aksini topgan: *«O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi... Fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar bilan bog‘liqdir»* [1, 19–20-m.]. Mazkur konstitutsiyaviy qoidalar jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning mustahkam normativ-huquqiy poydevorini tashkil etadi

Sohadagi institutsional islohotlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni dasturilamal hujjat bo‘lib xizmat qilmoqda [2]. Ushbu Farmon bilan tasdiqlangan Konsepsiyada: *«Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati»* [2]. degan konseptual g‘oya ilgari surilib, huquqiy ta’lim va tarbiyani «shaxs — oila — mahalla — ta’lim muassasasi — tashkilot — jamiyat» prinsipial zanjiri asosida uzluksiz va tizimli tashkil etish mexanizmi joriy etildi [2]. Mazkur tizimning metodologik ahamiyati shundaki, u huquqiy savodxonlikni bola shaxsining ilk ijtimoiylashuv bosqichidan boshlab umr davomida izchil rivojlantirib borishni ta’minlaydi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, «Inson qadri uchun» tamoyilini ro‘yobga chiqarish va qonun ustuvorligini ta’minlashga doir konseptual qarashlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasi markaziy o‘rinni egallaydi [6, 112-b.]. Davlat rahbarining yondashuviga ko‘ra, huquqiy madaniyat faqatgina professional

yuristlar yoki davlat xizmatchilariga xos kasbiy sifat emas, balki jamiyatning barcha a'zolari uchun hayotiy zarurat va umummilliy qadriyatdir [2; 6].

Prezidentning PF-5618-sonli Farmoni hamda «Yangi O'zbekiston strategiyasi» asarida ilgari surilgan g'oyalardan kelib chiqib, davlat organlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyati quyidagi yangi tamoyillarga asoslanishi lozimligi ko'rinadi: birinchidan, aholining huquqiy axborotga bo'lgan ehtiyojini «fuqaroga yo'naltirilganlik» tamoyili asosida qondirish; ikkinchidan, yosh avlodga Konstitutsiya va qonunlarni yodlatish emas, balki ularning mazmun-mohiyatini hayotiy misollar orqali anglatish; uchinchidan, huquqiy targ'ibotda eskirgan ma'ruzabozlikdan voz kechib, innovatsion va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish [2; 6, 115-b.].

Bu borada yana bir muhim metodologik jihat shundan iboratki, qonun ustuvorligi faqatgina davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslarning qonunga bo'ysunishi bilan cheklanmaydi. Haqiqiy huquqiy davlatda fuqarolarning ham qonunlarga qat'iy rioya etishi, shaxsiy manfaatlar bilan jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlashi, o'zgalarning huquqlarini hurmat qilishi hamda har qanday huquqbuzarlik va korrupsiyaviy holatlarga nisbatan murosasiz bo'lishi talab etiladi [6, 118-b.]. Binobarin, yuksak huquqiy madaniyat davlat va fuqaro o'rtasidagi o'zaro ishonch va ijtimoiy sheriklikning eng muhim poydevoridir.

Yoshlar har qanday davlatning intellektual salohiyati va strategik kelajagini belgilovchi yetakchi demografik qatlam hisoblanadi. Shu sababli, yosh avlodning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda o'z konstitutsiyaviy huquq va burchlariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish hamda huquqiy immunitetni kuchaytirish davlat yoshlar siyosatining o'zak yo'nalishidir [2; 7]. Bugungi kunda yoshlar huquqiy madaniyatini yangi bosqichga olib chiqishda quyidagi to'rtta ustuvor yo'nalishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

• **Birinchidan,** uzluksiz ta'lim tizimida (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida) huquqiy fanlarni o'qitishni quruq nazariy

dogmalar bilan cheklab qo‘ymasdan, kazuslar (hayotiy muammoli vaziyatlar) tahlili va interaktiv amaliy mashg‘ulotlar asosida tashkil etish;

• **Ikkinchidan,** yoshlarning yangi tahrirdagi Konstitutsiya, inson huquqlari, mehnat munosabatlari, oila huquqi, fuqarolik-huquqiy shartnomalar hamda axborot xavfsizligiga doir amaliy bilimlarini tizimli mustahkamlash;

• **Uchinchidan,** raqamli makon va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda, huquqiy axborotlarni yoshlar auditoriyasiga sodda, infografika va multimedia shakllarida hamda rasmiy tasdiqlangan ishonchli manbalar orqali yetkazish [8];

• **To‘rtinchidan,** ta’lim dargohlarida huquqiy viktorinalar, munozara klublari (debatlar), sud jarayonlarining o‘quv simulyatsiyalari («Moot Court» — o‘quv sud majlislari) hamda ilmiy-amaliy konferensiyalarni muntazam o‘tkazish orqali yoshlarning amaliy huquqiy faolligini rag‘batlantirish.

Bunda shuni alohida ta’kidlash joizki, yuksak huquqiy madaniyatli yosh shaxs — bu faqatgina o‘z subyektiv huquq va imtiyozlarini talab qiluvchi individ emas, balki o‘z konstitutsiyaviy burchlarini vijdonan bajaradigan, qonuniy cheklovlarni to‘g‘ri qabul qiladigan va boshqa insonlarning sha’ni, qadr-qimmati hamda erkinliklariga hurmat bilan qaraydigan komil fuqarodir [5, 92-b.].

Mamlakatimizda huquqiy ma’rifat va targ‘ibot tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga qaramay, amaliyotda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda [2]. Mazkur muammolar va ularni bartaraf etishning mualliflik mexanizmlari quyidagi tahliliy jadvalda umumlashtirilgan:

2-jadval. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘nalishlari

T/r	Saqlanib qolayotgan tizimli muammolar	Taklif etilayotgan ilmiy-amaliy yechimlar va mexanizmlar

1.	Ayrim fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini yetarli darajada bilmasligi hamda huquqiy loqaydlik.	Mahallalarda bepul birlamchi yuridik maslahat («Mahalla huquqshunosi», yuridik klinikalar) tizimini kengaytirish va kundalik masalalar bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar tarqatish.
2.	Qonunchilikdagi jadal o‘zgarishlardan aholining o‘z vaqtida xabardor bo‘lish darajasi pastligi va yuridik tilning murakkabligi.	Qabul qilinayotgan qonun va farmonlarni «Plain Language» (sodda xalqchil til) tamoyili asosida qisqa sharhlar, infografikalar va audioroliklar shaklida e’lon qilish amaliyotini kengaytirish.
3.	Global internet tarmog‘i va ijtimoiy tarmoqlarda noto‘g‘ri, asossiz (feyk) huquqiy talqinlarning tarqalishi.	Raqamli huquqiy savodxonlikni oshirish: «Lex.uz» va «Advice.uz» milliy portallari negizida qisqa videodarslar hamda sun’iy intellektga asoslangan interaktiv huquqiy botlarni rivojlantirish [8].
4.	Yoshlar orasida nazariy huquqiy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda amaliy qo‘llash ko‘nikmalarining yetarli shakllanmaganligi.	Huquqiy ta’limni amaliyot bilan integratsiyalash: maktab va oliy o‘quv yurtlarida «Case-study» (muammoli vaziyatlar tahlili), mediatsiya va o‘quv sud jarayonlari soatlarini ko‘paytirish.
5.	Oilada va mahallada dastlabki huquqiy tarbiya va shaxsiy namuna institutining sustligi.	Ota-onalarning farzandlariga huquq va burchlar uyg‘unligini tushuntirish borasidagi pedagogik-huquqiy mas’uliyatini oshirishga qaratilgan «Oila huquqiy alifbosi» dasturlarini joriy etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy-huquqiy va institutsional tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, yuksak huquqiy madaniyat — Yangi O‘zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat barpo etishning hal qiluvchi sharti hamda mustahkam kafolatidir. Zero, huquqiy madaniyat chuqur ildiz otgan jamiyatda har bir shaxs o‘z konstitutsiyaviy huquqlarini aniq biladi, yuridik majburiyatlarini vijdonan anglaydi, qonunlarga yuksak hurmat bilan munosabatda bo‘ladi va boshqa insonlarning huquqiy erkinliklari chegarasini buzmaslikka intiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, haqiqiy huquqiy davlatni faqatgina mukammal kodeks va qonunlar qabul qilish yo‘li bilan emas, balki ana shu qonunlarning ruhini anglaydigan, ularni ichki e’tiqod darajasida hurmat qiladigan va kundalik faoliyatida ularga so‘zsiz amal qiladigan faol fuqarolar ishtirokidagina barpo etish mumkin [4, 215-b.]. Shu nuqtai nazardan, jamiyatda huquqiy

madaniyatni yuksaltirishni faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki adliya tizimining idoraviy vazifasi sifatida baholash metodologik jihatdan noo‘rindir. Mazkur uzluksiz jarayonda har bir fuqaro, oila, mahalla, ta’lim muassasasi, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘zaro ijtimoiy sheriklikda faol ishtirok etishi zarur [2].

Muxtasar qilib aytganda, qonunni bilish — huquqiy savodxonlik, qonunni qadrlash va hurmat qilish — huquqiy madaniyat, qonun talablariga og‘ishmay amal qilish esa yuksak huquqiy mas’uliyat ifodasidir. Adolatli jamiyatning huquqiy poydevori qonunlar bilan yaratilsa, uning barqarorligi va hayotiyligi yuksak huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan ma’rifatli fuqarolar tomonidan ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrirda, 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). — Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2023. — 88 b. URL: https://lex.uz/docs/-6445145

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. — 10.01.2019-y., 06/19/5618/2452-son. URL: https://lex.uz/docs/-4149765

3. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. — Toshkent: «Adolat», 2007. — 916 b.

4. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik. — Toshkent: «Adolat», 2018. — 528 b.

5. Saidov A.X. Inson huquqlari va huquqiy madaniyat. — Toshkent: «Sharq», 2019. — 320 b.

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: «O‘zbekiston» nashriyoti, 2021. — 464 b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-6600413

8. O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi — Lex.uz hamda Milliy huquqiy internet portali — Advice.uz rasmiy materiallari.